

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K: 808.56

NUTQIY ETIKET VA MILLIY-MADANIY IDENTIKATSIYA: INGLIZ TILI KONTEKSTI MISOLIDA**SPEECH ETIQUETTE AND NATIONAL-CULTURAL IDENTIFICATION: THE EXAMPLE OF THE ENGLISH LANGUAGE CONTEXT****РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ: НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВОГО КОНТЕКСТА****Qodirova Xolidaxon Ulug'bek qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilidagi nutqiy etiketdagi milliy va madaniy omillar bog'liqliklari, ularning muloqot jarayonida tutgan o'rnini tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot doirasida ingliz nutq madaniyatiga xos bo'lgan litota, kichik suhbat, qora yumor kabi sifatlar o'rganilib, so'zlashuvda aks etish mexanizmlari ham ko'rib chiqiladi.

Abstract

This article focuses on the analysis of the interrelationships of national and cultural factors in English speech etiquette, their place in the communication process. Within the framework of the study, such qualities as understatement, small talk, dark humor, characteristic of English speech culture, are also studied, and the mechanisms of their reflection in speech are also considered.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу национально-культурных факторов английского речевого этикета, их роли в процессе общения. В рамках исследования также изучаются характерные для английской речевой культуры недосказанность, светская беседа и черный юмор, а также рассматриваются механизмы отражения в речи.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, milliy xarakter, madaniy komponentlar, kichik suhbat, litota, inglizcha yumor.

Key words: speech etiquette, national character, cultural components, small talk, understatement, English humor.

Ключевые слова: речевой этикет, национальный характер, культурные компоненты, светская беседа, недосказанность, английский юмор.

KIRISH

Ingliz tili muloqot madaniyati, tabiati haqida so'z yuritar ekanmiz, uning mazmun va tamoyillarini belgilab beruvchi omillar ichida ingliz mentaliteti hamda milliy xarakterning ba'zi xususiyatlari alohida o'rin egallaydi. Ingliz milliy xarakteridagi har bir element muloqot jarayonida ma'lum darajada namoyon bo'ladi, ammo ba'zi xususiyatlar boshqalariga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadi. Milliy kommunikativ xulq-atvorning o'ziga xos tomonlarini tahlil etishda, ushbu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Atoqli rus lingvisti I.A Sternin ingliz kommunikativ xarakateri haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan va o'zining ilmiy asarlarida batafsil bayon qilishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz muloqot madaniyati xulqi va uning milliy-madaniy komponentlari xususida ko'plab lingvist olimlar va madaniyatshunoslar turli tadqiqot ishlarini olib borganlar va bu sohada olib borilayotgan ishlar qizg'in muhokamalarni o'zida mujassam etadi. Taniqli tilshunoslardan biri I.A.Sternin o'zining bir qator ilmiy asarlarida shu mavzuga ko'p marotaba murojaat qilib, atroflicha mulohazalar yuritadi[7]. Shuningdek, A.V.Pavlovskaya qadimgi ingliz an'analari va urf-odatlarini va ularga bo'lgan cheksiz ehtiromning hali-hamon saqlanib kelayotgani, inglizlarning o'zgarishlarni deyarli xushlayvermasliklari hamda eski odatlarga sodiq hayot kechirishlari haqida misollar keltirib

beradi[6]. Bu mavzu yuzasidan bir qator yozuvchilar ham o'z asarlarida atroflicha to'xtalib o'tadilar. Xususan, madaniyatshunos Keyt Foks "Inglizlarni kuzatib"[3], Elizabet Uays "Debretning qo'llanmasi"[2] kabi asarlarida ingliz hayot tarzi haqida shuningdek ularning muloqot xulqi haqida ham fikr yuritadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Inglizlar kundalik hayoti, muloqot jarayoni va madaniyatining ajralmas bo'lagi bu, shubhasiz, ularning hazillari va yumorga boy hissidir. Yuqorida aytganimizdek inglizlar o'ta xushmuomala va muloyim xalq, shu sababdan ham o'z suhbatlarida fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etmay, turli hazil, kinoya va so'z o'yinlaridan foydalanishni xush ko'radilar. Biroq, ingliz tilidan yaxshi xabardor bo'lmagan insonlar bu tilda ifodalanagan yumorni anglab olishi biroz qiyin bo'lishi mumkin. Chunki, ingliz hazillari ko'pincha so'z o'yini ustiga qurilgan bo'ladi, ya'ni bir so'z bir vaqtning o'zida ikkita ma'noni anglatadi: birinchisi so'z odatiy ya'ni denotativ o'z ma'nosida, ikkinchi so'z ko'chma ma'noda va hazil ohangida qo'llanilgan bo'ladi. Taniqli antropolog Keyt Foks o'zining "Inglizlarni kuzatib" nomli asarida ingliz hazili haqida suhbatning istalgan paytida va istalgan mavzuda mavjud ekanligi va inglizlar muloqotda undan juda keng foydalanishi haqida so'z yuritadi[3]. Shunindek, u aksariyat chet elliklar inglizlar suhbatda juda ko'p hazil elementlaridan foydalanishgani sababli, ular qachon hazil qilishyapti yoki qachon jiddiy ohangda so'zlashyapti farqlay olmayotganidan nolib qolishlari haqida ham qayd etadi. Chindan ham, inglizlar hazil-mutoyiba bilan suhbat qurishga juda ustalardir. Ular uchun hazil – odob-axloqning bir qismi sanaladi.

Ingliz xalqi kundalik hayot tarzida turli ko'rinishdagi hazil turlariga duch kelish mumkin: litota (understatement), kinoya, o'z-o'zini ustidan kulish(self-deprecation), so'z o'yini. Understatement – kamtarona ifoda bo'lib, ingliz nutq jarayonida ko'p uchrovchi hazil turidir, bunda voqea-hodisani bo'rttirish o'rniga, uni kichiklashtirib, oddiy qilib ko'rsatishdir. Jorj Mayks kamtarona ifodani nafaqat ingliz yumor hissining o'ziga xos xususiyati, balki hayot tarzi deb ta'riflaydi. Haqiqatdan ham, ingliz jamiyatida oshkoralik, ortiqcha hissiyot va maqtovlarga nisbatan ayrim cheklovlar mavjudligi sababli, ular bu narsalarni ifoda etishda teskari yo'l tutadilar. Ya'ni jiddiy va muhim narsalarni mayda va arzimaz qilib tasvirlash orqali kulgiga sabab bo'ladilar. Misol tariqasida quydagi jumalarni ko'rib chiqamiz: surunkali va og'riqli kasallikni "a bit of nuisance" (biroz noqulay), ajoyib yutuqlar haqida "not bad" (yomon emas), hayratlanarli darajada chiroyli manzara "quite pretty" (anchayin chiroyli), boshqalarni hayratga soluvchi shaxslar yoki narsalar haqida so'z ketganda oddiygina "nice" (yaxshi), agar yanada yuqoriroq baho berishni istashsa "very nice" (juda yaxshi) deb ta'riflashadilar. Understatement inglizlar hayotiga, tili va madaniyatiga shunchalik chuqur borganki, uni ingliz xalqi nutqiy madaniyatining timsoliga qiyoslash mumkin. Jorj Mayks inglizlar haqida "Inglizlarning qalbi mavjud emas, uning o'rniga kamtarona ifodadan foydalanishadi"[4] deb so'z yuritadi.

Understatement fenomeni kelib chiqish tarixiga yuzlansak, ushbu tushuncha anglo-saksonlar davrida vujudga kelgan bo'lib, ular muloqotda o'z fikrlarini ochiqcha bayon etishdan ko'ra ehtiyotkorlik bilan bayon etishni afzal ko'radilar. O'sha vaqtlardayoq inglizlar muloqotdagi nozik so'z san'atini – fikrni to'liq bayon qilmaslik, zimdan ishora qilish orqali mazmunni yanada chuqurroq ochib berish orqali fikrlarini bayon etishni boshlaganlar. Dastlab, understatement fenomenini muloyimlik va odob-axloqning bir ko'rinishi sifatida talqin qilingan bo'lsada, bayon qilinayotgan fikrlar zamiridagi yashirin kinoya va istehzoni payqash qiyin bo'lmagan.

Davrlar o'tishi bilan understatement tushunchasi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrga kelib inglizlar orasida muloqot normalari yuqori darajaga ko'tarilib, suhbat jarayonidagi intellektuallik, xushmuomalalik, muloyimlikka alohida e'tibor berilar edi. Understatement tushunchasi o'ziga xos estetik qiyofaga ega bo'lib, insonlarning o'zaro muloqotida nufuzli vositaga aylandi. Ushbu tushuncha yordamida suhbatdoshlar o'z mulohazalarini oshkora tanqid orqali bayon etmay, nafis va nozik qochirimlar orqali yetkazishi yuzaga keladi. Shunday qilib, muloqot chog'ida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatlar va keskinliklarni nafis va ohangdor iboralar yordamida yumshatish imkonini inglizlar understatement deb atay boshlashgan.

Bugungi kunda understatement fenomeni ingliz tilini boshqa tillardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatga aylanib qolgan. Bugungi kunga kelib understatement hodisasi ingliz tilida so'zlar uchun muloqot chog'ida tabiiy jarayonda yuzaga keluvchi holat bo'lib, madaniy xulq-atvor, milliy temperamentni ham o'zida aks ettiradi.

TILSHUNOSLIK

Yuqorida aytib o'tganimizdek inglizlar o'z-o'ziga tanqidiy hazil qilishni yaxshi ko'radilar. Shulardan yana biri Buyuk Britaniyalik mashhur yozuvchi va dramaturg Oskar Uayld ham o'zi haqida tanqidiy munosabatda hazillashishni yoqtirgan. U bir safar shunday degan: "I am so clever that sometimes I don't understand a single word of what I am saying" (Men shunchalik aqllimanki, ba'zida o'zim nima deyayotganimni ham tushunmayman). U bu hazili orqali o'zining haddan ortiq murakkab fikrlashini havj qilgan.

Buyuk Britaniyaning bosh vaziri Uinston Cherchill o'zining keskin va hazilomuz nutqlari bilan mashhur bo'lgan. Bir marta unga: "Sizni ko'pchilik ikkiyuzlamachi deb hisoblaydi", deb aytishganda, u ularga javoban: "If I had two faces, would I be wearing this one?" (Agar menda ikkita yuz bo'lganda, men shuni kiyib yurarmidim?) deb aytadi. Ya'ni u o'ziga qaratilgan tanqidiy mulohazalarni ustamonlik bilan hazilga burib vaziyatdan chiqish yo'lini topadi.

Ingliz jamiyatida muloqotining o'ziga xos komponentlaridan biri small talk hisoblanadi. U nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy-madaniy norma ham sanaladi. Small talk tabiati jihatidan fatik muloqot bo'lib, uning asosiy funksiyasi axborot almashish emas, balki suhbatdoshlar orasida ijtimoiy aloqa o'natish va uni mustahkamlash bo'lib xizmat qiladi. Fatik muloqot tushunchasi ilk marta tilshunos olim Bronislaw Malinowski tomonidan 1923-yilda fanga olib kiritilgan[1].

Inglizlar fatik muloqot chog'ida ob-havo haqida suhbatni boshlashi eng keng tarqalgan holat bo'lib, unga odatiy hol sifatida qaraladi. Mashhur antropolog Keyt Fox bu haqida quydagicha fikr bildirgan: "When two Englishmen meet, their first talk is of the weather" (Qachonki ikki ingliz uchrashib qolganda, ular suhbatni ob-havodan boshlaydilar)[3]. Ushbu small talk tematikasi juda ham keng tus olgani sababli suhbatning janri "weather-speak" deb ham nomlanadi. Aksariyat kishilar bunday suhbat mavzusining mashhurligining sababi Britaniya ob-havosining tez-tez o'zgaruvchanligi bilan bog'lashsada, aslida bunga sabab ob-havo mavzusi kommunikativ aloqani boshlash va davom ettirish uchun juda ham qulayligidadir. Masalan, suhbatdosh haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaganda, turli sharoitlarda insonlar bilan bir muddat yonma-yon turib qolganda: navbatda yoki jamoat transportlarda weather speak – ob-havo haqidagi small talk kommunikativ noqulaylikni bartaraf etish hamda pauzalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Small talkning madaniy jihatdan taraqqiy etish bosqichlari haqida ko'plab fikr-mulohazalar mavjud. Y.B.Kuzmenkova ushbu jarayonlarni o'rganib uni muayyan bosqichlarga bo'lib chiqadi[5]. Uning fikricha birinchi bosqich kommunikativ aloqani taklif qilishdan iborat bo'lib, suhbatdoshga small talk uslubida murojaat qilish aloqani boshlash uchun turtki beradi. Muloqotni boshlamoqchi bo'lgan shaxs tegishli savol bilan boshlaydi va natijada suhbatdoshni savolga javob qaytarishga unday boshlaydi.

XULOSA

Yuqorida keltirib o'tilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ingliz nutqiy etiketi ingliz jamiyatining madaniy hamda ijtimoiy me'yorlarini o'zida jamlaydi. Umuman olganda, nutqiy etiketni bir butunligini ta'minlovchi har bir element o'zida ingliz milliy va madaniy xarakterini aks ettiradi va nutqda ajralib turishga yordam beradi. Bu kabi jihatlar alohida e'tibor qaratish shu tilda muloqot qilishni istagan shaxslar uchun muhim hisoblanib, nafaqat o'z fikr-mulohazalarini aniq ifodalashga yordam beradi, balki madaniy moslashuvchanlik va ijtimoiy uyg'unlik sari ham yo'l ochadi.

ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Charles H.P. Zuckerman. Phatic, the communication and communion. University of Sydney, Australia. 2016.
- 1-2. Elizabeth Wyse. Debrett's handbook. London. 2014. 1091-1093.
3. Kate Fox. Watching the English. 2005. 130-134.
4. Mikes George. How to be an alien. London. 1969
5. Кузьменкова. Ю.Б. От традиций культуры к нормам речевого поведения британцев, американцев и россиян. 3-е изд. –М. ИД Сказочная дорога.2014
6. Павловская А.В. Особенности национального характера или за что англичанине любят очереди. Журнал Вокруг света. 2003
7. Стернин И.А. Английское коммуникативное поведение //Английский язык в школе и вузе// Воронеж, 1995.